

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

*Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal*

2026-YIL / SENTABR /  
9-SON, I-QISM

Google  
scholar

RePEc  
RESEARCH PAPERS  
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.  
I-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                            |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI<br>RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI .....                                                             | 34 |
| <b>Aytmuratova Ulbike Jalgasovna</b>                                                                                                                                       |    |
| BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA<br>BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI .....                                                                                 | 41 |
| <b>Jumayeva Zulfiya Qayumovna</b>                                                                                                                                          |    |
| GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON<br>MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI .....                                                                               | 46 |
| <b>Davlatova Nilufar Avazovna</b>                                                                                                                                          |    |
| KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI:<br>MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI<br>BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) ..... | 50 |
| <b>Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich</b>                                                                                                                                  |    |
| АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО<br>«SAM PULSAR DISTRIBUTORS» .....                                                                                            | 61 |
| <b>Мусаева Шоира Азимовна</b>                                                                                                                                              |    |
| KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI .....                                                                                                         | 68 |
| <b>Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi</b>                                                                                                                               |    |
| GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING<br>YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI .....                                                                          | 73 |
| <b>Jahongir Nurulloyevich Jurayev</b>                                                                                                                                      |    |
| YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA<br>XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI.....                                                                                       | 77 |
| <b>Nasulloeva Oydinoy Saidovna</b>                                                                                                                                         |    |
| ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ:<br>МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ.....                                                                                | 82 |
| <b>Палвонова Севара Бахромовна</b>                                                                                                                                         |    |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA<br>IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....                                                         | 94 |
| <b>Sultanova Zuxra Jaksilikovna</b>                                                                                                                                        |    |



# MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI



**Sultanova Zuxra Jaksilikovna**  
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mintaqa iqtisodiyotini raqamli transformatsiya qilish jarayonida IT-parklarning iqtisodiy mohiyati, nazariy asoslari, institutsional funksiyalari hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etish mexanizmlari tadqiq etilgan. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, inson kapitali salohiyatini oshirish va hududiy raqobatbardoshlikni mustahkamlashdagi o'rni nazariy jihatdan asoslangan. IT-parklarning mintaqaviy innovatsion ekotizimni shakllantirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va startup faoliyatini qo'llab-quvvatlashdagi institutsional ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, IT-park, texnologik park, mintaqaviy rivojlanish, innovatsion ekotizim, inson kapitali, hududiy innovatsion tizim, raqamli infratuzilma, startup, iqtisodiy samaradorlik.

**Abstract.** The economic essence, theoretical foundations, and institutional functions of IT parks, as well as their mechanisms of influence on regional economic development in the context of digital transformation, are examined. The role of digital technologies in promoting economic growth, fostering innovative entrepreneurship, enhancing human capital, and strengthening regional competitiveness is theoretically substantiated. Particular attention is paid to the institutional significance of IT parks in shaping regional innovation ecosystems, developing digital infrastructure, and supporting startup activities.

**Keywords:** digital economy, digital transformation, IT park, technology park, regional development, innovation ecosystem, human capital, regional innovation system, digital infrastructure, startup, economic efficiency.

**Аннотация.** Исследованы экономическая сущность, теоретические основы и институциональные функции IT-парков, а также механизмы их влияния на региональное экономическое развитие в условиях цифровой трансформации. Теоретически обоснована роль цифровых технологий в обеспечении экономического роста, развитии инновационного предпринимательства, повышении потенциала человеческого капитала и укреплении региональной конкурентоспособности. Особое внимание уделено институциональному значению IT-парков в формировании региональной инновационной экосистемы, развитии цифровой инфраструктуры и поддержке стартап-деятельности.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, цифровая трансформация, IT-парк, технологический парк, региональное развитие, инновационная экосистема, человеческий капитал, региональная инновационная система, цифровая инфраструктура, стартап, экономическая эффективность.



## KIRISH

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga jadal kirib borishi hududiy rivojlanishning an'anaviy omillariga bo'lgan yondashuvlarni ham o'zgartirmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda hududlarning raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslar, kapital va mehnat bilan, balki bilim, innovatsiya, raqamli infratuzilma va inson kapitalidan foydalanish imkoniyatlari bilan ham belgilanmoqda. Shu sababli mintaqalarda raqamli transformatsiyani ta'minlashning samarali institutsional mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat hududlarida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, "Biz 'Raqamli O'zbekiston – 2030' strategiyasini qabul qildik. Ushbu hujjatda barcha muhim sohalarni raqamlashtirish nazarda tutilgan. Biz mamlakatimiz hududlarida IT-parklarni tashkil etmoqdamiz", deb ta'kidlagan [1]. Mazkur fikr IT-parklarni oddiy axborot texnologiyalari korxonalarini joylashtirish uchun mo'ljallangan infratuzilma sifatida emas, balki hududlarni raqamli transformatsiya qilishning institutsional vositasi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatda IT sohasining iqtisodiy ahamiyati ham ortib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Bu yil mamlakatimizda IT xizmatlari eksporti ilk bor 1 milliard dollarni tashkil etdi. Biz 2030-yilga borib, IT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olganmiz", deb qayd etilgan [2]. Mazkur strategik maqsad IT sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini kuchaytirish bilan birga, uning hududiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasini ham kun tartibiga olib chiqadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

IT-parklarning nazariy asoslarini tadqiq etishda, avvalo, innovatsiyalar nazariyasining shakllanishiga murojaat qilish lozim. J. Shumpeter iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida innovatsiyalarni ko'rsatib, yangi mahsulot, yangi ishlab chiqarish usuli, yangi bozor, yangi xomashyo manbasi yoki ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllarini iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari sifatida talqin qilgan [3]. Ushbu yondashuv IT-parklarning iqtisodiy mohiyatini tushuntirish uchun muhim nazariy asos yaratadi, chunki IT-parklarning asosiy vazifalaridan biri innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish va yangi texnologiyalarga asoslangan bizneslarni shakllantirishdan iborat.

S. Freeman innovatsion faoliyatni alohida korxona doirasidagi jarayon sifatida emas, balki ilmiy, texnologik, institutsional va ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi [4]. Keyinchalik B.-Å. Lundvall tomonidan rivojlantirilgan milliy innovatsion tizim konsepsiyasida bilim yaratish, tarqatish va undan foydalanish jarayonida universitetlar, korxonalar, davlat institutlari va boshqa subyektlarning o'zaro ta'siri muhim o'rin egallashi ta'kidlangan [5].

M. Porterning klaster nazariyasida esa bir-biriga bog'liq korxonalar, ta'minotchilar, ilmiy va ta'lim muassasalari hamda boshqa institutlarning geografik jihatdan yaqinlashuvi raqobatbardoshlik va innovatsion faollikni oshirishi mumkinligi asoslangan [6]. Mazkur yondashuv texnologik va IT-parklarning hududiy konsentratsiya, bilim almashinuvi va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirishdagi rolini tushuntirishga imkon beradi.

Shuningdek, innovatsion rivojlanish jarayonlarini tushuntirishda H. Etzkowitz va L. Leydesdorff tomonidan taklif etilgan "Triple Helix" (Uchlik spiral) modeli alohida ahamiyat kasb etadi [7]. Mazkur modelga ko'ra, innovatsion tizim davlat, universitet va biznes o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning dinamik jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham innovatsion infratuzilma, texnoparklar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'zni bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, X.M. Karimovning "Sanoat tarmoqlarida innovatsion infratuzilmalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (to'qimachilik sanoati misolida)" mavzusidagi PhD tadqiqotida innovatsion infratuzilmaning muhim subyektlari sifatida texnoparklar, loyiha markazlari, inkubatorlar, ventur fondlar va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalari tadqiq etilgan [8]. Olim tomonidan texnoparklar faoliyatini bilimlar transferi va texnologiyalar diffuziyasiga asoslangan ko'p funksiyali hamkorlik tizimi sifatida tashkil etish yondashuvi ilgari surilgan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarda IT va texnologik parklar bo'yicha to'rtta asosiy ilmiy yo'nalish shakllanganligini ko'rish mumkin: innovatsiyalarni rag'batlantirish, universitet–biznes–davlat hamkorligini rivojlantirish, yangi texnologik firmalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash, hududiy innovatsion va tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini mintaqaviy iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqotda IT-parklarni alohida xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida emas, balki hududiy innovatsion ekotizimning institutsional elementi sifatida o'rganishga ustuvor ahamiyat berildi. Tadqiqot jarayonida tizimli, institutsional, evolyutsion, funksional va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarda "texnologik park", "ilmiy park", "innovatsion park" va "IT-park" tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularni aynan bir xil iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Texnologik parklar, odatda, ilmiy-texnik bilimlarni ishlab chiqarishga joriy qilish va texnologik firmalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. IT-parklarning o'ziga xosligi esa ularning faoliyatida raqamli texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar, IT xizmatlari, raqamli tadbirkorlik va eksport xizmatlari markaziy o'rin egallashidadir. Shu asosda maqolada IT-park quyidagicha ta'riflanadi:

IT-park – raqamli texnologiyalarga asoslangan biznes, innovatsiya, tadbirkorlik va inson kapitalini rivojlantirishni yagona institutsional muhitda birlashtiruvchi hamda davlat, biznes, ta'lim, ilmiy-tadqiqot va moliyaviy institutlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtiruvchi hududiy iqtisodiy institutdir.

Mazkur ta'rifdan kelib chiqib, IT-parkni faqat axborot texnologiyalari kompaniyalari faoliyat yuritadigan maxsus hudud sifatida emas, balki raqamli iqtisodiyotning turli ishtirokchilarini o'zaro bog'lovchi kompleks institutsional tizim sifatida qarash mumkin. Uning asosiy vazifasi mavjud raqamli infratuzilmadan samarali foydalanish, innovatsion g'oyalarni amaliy loyihalarga aylantirish, startap va texnologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda malakali IT mutaxassislarini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, IT-parklar davlat tomonidan yaratilgan imtiyoz va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini biznes subyektlari, ta'lim va ilmiy muassasalar imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirib, yangi ish o'rinlari, raqamli xizmatlar eksporti, investitsiyalar va qo'shilgan qiymatni oshirish orqali mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun IT-park samaradorligini faqat rezidentlar soni yoki infratuzilma ko'lamiga bilan emas, balki uning hududda innovatsion faollik, inson kapitali, tadbirkorlik va iqtisodiy diversifikatsiyani shakllantirishga qo'shgan hisssasi orqali baholash maqsadga muvofiq.

IT-parklarning iqtisodiy mohiyatini tushunishda ularning evolyutsion rivojlanishini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. IT-parklarning iqtisodiy mohiyatini tushunishda ularning evolyutsion rivojlanish ketma-ketligi<sup>1</sup>.

Dastlabki bosqichda parklar asosan ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ishlab chiqarish o'rtasidagi texnologik transferni ta'minlashga xizmat qilgan. Ikkinchi bosqichda texnologik kompaniyalarni hududiy konsentratsiya qilish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish ustuvor bo'lgan. Uchinchi bosqichda startaplar, venchur kapital, inkubatsiya va akseleratsiya mexanizmlari paydo bo'lgan. Hozirgi bosqichda esa IT-parklar davlat, universitet, biznes, investor, startap va xalqaro bozorlarni bog'lovchi raqamli innovatsion ekotizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunday qilib, IT-parklarning evolyutsiyasi ularning "bino" yoki "hudud" sifatidagi mazmunidan "institut" va "ekotizim" sifatidagi mazmuniga o'tishini anglatadi.

Mamlakatda IT-parklar faoliyatining rivojlanishi so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning institutsional asoslarini shakllantirish, IT xizmatlari eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlarda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq holda kechmoqda. Mazkur jarayonning dastlabki natijalari IT Park rezidentlari soni, ularning xizmatlar hajmi, eksport ko'rsatkichlari hamda bandlik dinamikasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. IT-parklarning O'zbekiston iqtisodiyotidagi amaliy ahamiyatini ularning asosiy faoliyat ko'rsatkichlari dinamikasi orqali baholash mumkin. So'nggi yillarda rezidentlar soni, eksportga yo'naltirilgan kompaniyalar va IT xizmatlari eksportining ortib borishi IT-parklarning raqamli iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1 Muallif ishlanmasi



1-jadval  
O'zbekistonda IT Park faoliyatining ayrim asosiy ko'rsatkichlari<sup>2</sup>

| Ko'rsatkichlar                                       | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil |
|------------------------------------------------------|----------|----------|----------|
| IT Park rezidentlari soni, ta                        | 1 652    | 2 384    | 2 846    |
| IT xizmatlari eksporti, mln AQSh dollari             | 344      | 373      | 940      |
| Xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar, ta       | 426      | 587      | 970      |
| Hududlarda faoliyat yurituvchi/yangi rezidentlar, ta | 523      | 760      | 1 120    |

1-jadval ma'lumotlari O'zbekistonda IT-parklar faoliyatining barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Xususan, 2023–2025-yillarda IT Park rezidentlari soni 1 652 tadan 2 846 tagacha yoki 72,3 foizga oshgan. Shu davrda IT xizmatlari eksporti 344 mln AQSh dollaridan 940 mln AQSh dollariga yetib, qariyb 2,7 baravar ko'paygan. Xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar sonining 426 tadan 970 tagacha ortishi esa O'zbekiston IT sohasining xalqaro investorlar uchun jozibadorligi kuchayib borayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, hududlarda faoliyat yuritayotgan rezidentlar sonining 523 tadan 1 120 tagacha oshgani IT-parklar faoliyatining poytaxtdan tashqarida ham kengayib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa IT-parklarning nafaqat raqamli xizmatlar eksportini oshirish, balki hududlarda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mintaqaviy iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashdagi ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Mazkur tendensiyalar IT-parklarning zamonaviy iqtisodiyotda oddiy infratuzilmaviy obyekt emas, balki innovatsiyalar, inson kapitali va raqamli tadbirkorlikni birlashtiruvchi muhim institutsional mexanizmga aylanib borayotganligini ko'rsatadi.

IT-parklarning institutsional mohiyatini ochib berishda "Triple Helix" modeli amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi. O'zbekiston IT-parklari misolida bu jarayon quyidagicha aks etadi:

- **Davlat:** IT-parklarga soliq imtiyozlari berish, huquqiy baza yaratish va raqamli infratuzilmani moliyalashtirish orqali "institutsional katalizator" rolini o'ynaydi.

- **Universitet:** ta'lim dasturlarini bozor talablariga moslashtirish va amaliy tadqiqotlar orqali "bilim resursi"ni ta'minlaydi.

- **Biznes:** startaplar, xususi IT kompaniyalar va xalqaro investorlar orqali "tijoratlashtirish va bozorga chiqish" vazifasini bajaradi.

Ushbu uchlikning samarali uyg'unligi IT-park doirasida inson kapitalini innovatsion mahsulotga aylantirishning eng samarali mexanizmidir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, IT-parklarning iqtisodiy mohiyati ularni faqat raqamli kompaniyalarni joylashtiruvchi infratuzilmaviy obyekt sifatida emas, balki innovatsiya, tadbirkorlik, inson kapitali va raqamli texnologiyalarni yagona institutsional muhitda birlashtiruvchi hududiy iqtisodiy institut sifatida baholashni taqozo etadi. Ilmiy yondashuvlar va O'zbekiston tajribasi IT-parklarning rivojlanishi raqamli xizmatlar eksporti, xorijiy kapitalni jalb etish hamda hududlarda innovatsion tadbirkorlikni kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. 2023–2025-yillarda IT Park rezidentlari sonining 1 652 tadan 2 846 taga, IT xizmatlari eksportining 344 mln AQSh dollaridan 940 mln AQSh dollariga, hududlarda faoliyat yurituvchi rezidentlar sonining esa 523 tadan 1 120 taga oshishi IT-parklarning iqtisodiy va hududiy ahamiyati ortib borayotganligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- IT-parklar samaradorligini baholashning kompleks tizimini joriy etish, bunda rezidentlar soni bilan bir qatorda eksport, investitsiya, yaratilgan ish o'rinlari, innovatsion loyihalar va inson kapitali ko'rsatkichlarini ham hisobga olish.

- Hududiy IT-parklarni rivojlantirishda mahalliy sharoit va iqtisodiy salohiyatga mos ixtisoslashuvni kuchaytirish. Bu hududlarning mavjud mehnat resurslari va iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

- Universitet–IT-park–biznes hamkorligini kuchaytirish orqali talabalar va yosh mutaxassislarining amaliy IT loyihalariga jalb etilishini kengaytirish hamda hududlarda malakali inson kapitalini shakllantirish.

- IT-parklarni raqamli xizmatlar eksportini rivojlantirishning hududiy markazlariga aylantirish, ayniqsa, masofaviy xizmatlar, dasturiy mahsulotlar va outsorsing yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash.

2 IT Park Uzbekistan rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2024.
2. Mirziyoyev, Sh. M. Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha nutq va ma'ruzalar. – Toshkent.
3. Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1934.
4. Freeman, C. Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. – London : Pinter Publishers, 1987.
5. Lundvall, B.-Å. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. – London : Pinter Publishers, 1992.
6. Porter, M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York : Free Press, 1990.
7. Etzkowitz, H., Leydesdorff, L. The Triple Helix of University–Industry–Government Relations: A Laboratory for Knowledge-Based Economic Development // EASST Review. – 1995. – Vol. 14. – P. 14–19.
8. Karimov, X. M. Sanoat tarmoqlarida innovatsion infratuzilmalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (to'qimachilik sanoati misolida) : 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 9/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>